



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I**

**Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi xodimlarining xizmat
guvohnomasi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining “Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari xodimlarining xizmat guvohnomasi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida” 2012-yil 5-yanvardagi 2-son qaroriga muvofiq Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalarining rahbar va mutaxassislariga xizmat guvohnomalarini joriy etish maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 5-yanvardagi 2-son qarori bilan:

Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari xodimlarining xizmat guvohnomasi to‘g‘risidagi namunaviy nizom tasdiqlanganligi;

xizmat guvohnomalarining blankalari va muqovalari faqat O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki huzuridagi “Davlat belgisi” davlat-ishlab chiqarish birlashmasi va “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi korxonalarida tayyorlanishi belgilanganligi inobatga olinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi xodimlarining xizmat guvohnomasi to‘g‘risida nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan 2023-yil 1-yanvardan 2026-yil 31-martga qadar vazirlik markaziy apparati va tizim tashkilotlari xodimlariga berilgan, amal qilish muddati o‘tganligi hamda mehnat shartnomasi bekor qilinganligi sababli o‘z kuchini yo‘qotgan xizmat guvohnomalari 2-ilovaga muvofiq bekor qilinsin.

4. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish boshqarmasi (F.Xodjiyev) doimiy tarzda xizmat guvohnomalarining rasmiylashtirilishini, shuningdek, ularga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash, foydalanishga berish, almashtirish, hisobga olish va saqlashning tashkil etilishini qat’iy nazoratga olsin.

5. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, raqamlashtirish va sun'iy intellektni rivojlantirish boshqarmasi (S.Abdukarimov) vazirlikning rasmiy veb-saytiga "Xizmat guvohnomalari" sahifasini kiritsin.

6. Axborot xizmati (D.Sobirova) Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish boshqarmasi tomonidan shakllantirilgan lavozimidan ozod etilgan xodimlarning amal qilishi bekor qilingan xizmat guvohnomalari ro'yxatini muntazam ravishda vazirlikning rasmiy veb-saytida e'lon qilib borsin.

7. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Vazir



E. Karimova

Toshkent sh.,
2026 - yil 1 - aprel,
117 - son